



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH USULLARI

G'iyosova Dilovar Orif qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti Buxoro tumani
3-maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy masalalar yechishning usullari va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda mantiqiy fikrlashning ta'lim jarayonidagi o'rnini, xalqaro baholash dasturlari doirasidagi ahamiyati hamda bolalarning intellektual rivojiga qo'shadigan hissasi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashni shakllantirish metodlari, o'qituvchining pedagogik roli va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning foydalari yoritilgan. Boshlang'ich ta'lim bolalarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirishning muhim davri bo'lib, ayniqsa, mantiqiy fikrlash ularning nafaqat akademik muvaffaqiyatiga, balki kundalik hayotdagi muammolarni hal qilish qobiliyatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy ta'limda bu ko'nikma xalqaro baholash tizimlarida muhim mezon sifatida tan olingan. Shu sababli boshlang'ich sinflarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, mantiqiy fikrlash, mantiqiy masala, matematik tafakkur, interfaol usullar, xalqaro baholash, metod.

Abstract: This article analyzes the methods and significance of teaching logical problem-solving skills to primary school students. It highlights the role of logical thinking in the educational process, its importance within international assessment programs, and its contribution to children's intellectual development. The article also discusses methods of developing logical thinking in primary education, the pedagogical role of teachers, and the benefits of applying modern technologies in the learning process. Primary education is an important stage in shaping children's knowledge, skills, and abilities. In particular, logical thinking directly influences not only their academic success but also their ability to solve everyday problems. In modern education, this skill is recognized as a key criterion in international assessment systems. Therefore, developing logical thinking in primary school students is considered one of the priority directions of the education system.

Key words: primary education, logical thinking, interactive methods, mathematical reasoning, international assessment, methods, logical problems.

Аннотация: В данной статье анализируются методы и значение обучения учащихся начальных классов решению логических задач. В ней раскрывается роль логического мышления в образовательном процессе, его значение в рамках международных программ оценки, а также вклад в интеллектуальное развитие детей. Кроме того, освещаются методы формирования логического мышления в начальном образовании, педагогическая роль учителя и преимущества использования современных технологий в процессе обучения. Начальное образование является важным этапом формирования знаний, навыков и способностей детей. В особенности логическое мышление напрямую влияет не только на их академическую успеваемость, но и на способность решать повседневные жизненные задачи. В современной системе образования данный навык признан важным критерием в международных системах оценки. Поэтому развитие логического мышления у учащихся начальных классов считается одним из приоритетных направлений системы образования.

Ключевые слова: начальное образование, логическое мышление, логическая задача, математическое мышление, интерактивные методы, международная оценка, метод.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayoni va XXI asr kompetensiyalari (muammolarni tahlil qilish, muammoga yo'naltirilgan fikrlash, mantiqiy tafakkur) xalqaro ta'lim siyosatida birinchi darajali vazifaga aylandi. Xalqaro monitoringlar (TIMSS, PISA va boshqalar) matematik kompetensiyalar hamda masala yechish ko'nikmasini ta'lim sifatini baholashning asosiy indikator sifatida belgiladi. Bu esa boshlang'ich sinflarda masala yechish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodikalarni takomillashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilash muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

2020-yilda Respublikamizda matematika fani ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda matematika sohasini rivojlantirish, uni ta'lim jarayoniga chuqur integratsiyalash, shuningdek, mazkur fan asosida ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan tizimli va izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi chora-tadbirlar ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son¹ Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son² "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-sonli Qarori, Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'limini har tomonlama takomillashtirish hamda rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bu masalani hal qilish uchun o'rta maktabning boshlang'ich sinflarida matnli va mantiqiy masalalarni turli usullarda yechish maqsadga muvofiqdir. Matematika fani barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Ushbu fanni chuqur o'rgangan bola kelajakda keng tafakkurli bo'lib, hayotda o'z o'rnini oson topadi. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va tafakkurni kengaytiradi.

Shunga asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida, asosan, matematika darslarini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etib olib borish, ularda masalani muhokama qilib yechish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish, ayniqsa, ularda matematik tasavvurlarni shakllantirishga qaratilgan faoliyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mantiqiy fikrlash – bu muayyan masalalarni tahlil qilish va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikma bolalarga:

- fikrlarini aniq va mantiqan izchil ifoda etishni;
- vaziyatlarni to'g'ri baholashni;
- muammolarga ijodiy yondashishni o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflar mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshdagi bolalar tabiiy ravishda qiziquvchanlik va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Mantiqiy fikrlashning rivoji, ayniqsa, matematika va tabiiy fanlarda yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirish, ularni kuzatish, solishtirish, tasniflash, asoslash va umumlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalarga yo'naltirish o'qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni talab qiladi.

Shu sababli ham matematika darslarida matematik masalaning roli va uning o'rnini haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir:

1. Matematika fanining nazariy qismlarini o'rganish matematik masalalarni yechish maqsadida bajariladi.
2. Matematika fanini o'rgatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi.
3. Matematikani o'rganish masala yoki misollar yechish orqali amalga oshiriladi. Masala tushunchasiga kundalik hayotimizda uchraydigan vaziyatlarning tabiiy tildagi ifodasi sifatida qaraladi.

Masala asosan uch qismdan iborat bo'ladi:

1. **Masalaning sharti** – o'rganilayotgan muammoni tavsiflovchi ma'lum va noma'lum miqdoriy qiymatlar hamda ular orasidagi miqdoriy munosabatlar haqidagi ma'lumot.
2. **Masalaning talabi** – masala shartidagi miqdoriy munosabatlarga ko'ra nimani topish kerakligini ifodalaydi.
3. **Masalaning operatori** – masala talabini bajarish uchun shartdagi miqdoriy munosabatlarga nisbatan bajariladigan amallar yig'indisi.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>

² <https://lex.uz/docs/-4409503>

Umuman olganda, istalgan masala ustida ishlash eng kamida 5 etapdan iborat bo'lishi kerak:

1. Masalaning shartini o'zlashtirish.
2. Masalaning qisqacha shartini tasvirlash.
3. Qisqacha shartga qarab muhokama qilish.
4. Yechish rejasini tuzish va yechish.
5. Yechilgan masala ustida ishlash.

1-bosqich. Maqsad masala shartini tushuntirish va shartni o'quvchilar ongiga singdirishdan iborat. Masalani yechish har doim uning sharti va unga qo'yilgan savol bilan tanishishdan boshlanadi. Bolalar yetarlicha tez o'qishni o'rganib olgunlariga qadar masala sharti va unga qo'yilgan savolni o'qituvchi gapirib beradi yoki o'qib beradi. Ammo bolalar o'qish malakasini egallab olganlaridan keyin (odatda murakkab masalalarni yechishni boshlashga qadar ular bu ko'nikmani egallab olgan bo'ladilar), masalani o'qishni o'quvchilardan biriga taklif qilish, ba'zi hollarda esa barcha o'quvchilarga tovush chiqarmay o'qishni taklif qilish mumkin. Bolalarni masalani o'qishga o'rgatish uchun o'qituvchi ularni masalani o'qish bo'yicha muntazam mashq qildirishi kerak.

Masala bilan tanishtirishda har xil usul va uslublardan foydalanish mumkin:

1. O'qituvchi o'qiydi yoki gapirib beradi, o'quvchilar esa tinglaydilar.
2. O'qituvchi o'qiydi, bolalar esa darslik matnini ko'zlari bilan kuzatib turadilar.
3. Bolalarning barchasi ovoz chiqarmay o'qiydilar, so'ngra esa barchalari baland tovush bilan aytadilar yoki bolalardan bittasi masala mazmunini bog'lanishli hikoya qilib beradi.
4. O'qituvchining chaqirishi bo'yicha bir o'quvchi shartni o'qiydi, qolgan bolalar matnni darslikdan kuzatadilar.
5. O'qituvchining topshirig'i bo'yicha o'quvchilardan biri masalani baland ovoz bilan o'qiydi, qolgan bolalar esa o'qishni tinglab qabul qiladilar.
6. O'quvchilar masalani tovush chiqarmay o'qiydilar, so'ngra esa o'qituvchining savollari bo'yicha masaladagi berilganlarning har biri nimani bildirishini tushuntiradilar.

2-bosqich. Masalaga doir qisqa yozuv tuzishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

1. Qisqa yozuv masala mazmuni bilan tanishilgandan keyin tuziladi va yechish yo'llarini izlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar qisqa yozuvga asoslanib, o'qituvchi boshchiligida masalani tahlil qiladilar.
2. Qisqa yozuv ixcham, aniq bo'lishi va miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni aynan aks ettirishi kerak. U har xil shaklda, ya'ni jadval tarzida, chizma, rasm, sxema ko'rinishida va hokazo tasvirlanishi mumkin.
3. Qisqa yozuvning har bir yangi ko'rinishini o'quvchilar o'qituvchi boshchiligida bajaradilar.
4. Darsning maqsadlari va masalaning qiyinlik darajasiga qarab qisqa yozuvni o'qituvchi yoki o'qituvchi boshchiligidagi o'quvchi doskada bajarishi mumkin.

Istalgan masaladagi qisqacha shart masala shartidan kelib chiqqan ko'rgazmali quoldir. Demakki, ko'rgazmali quollarning turlari xilma-xil ekan, masala qisqacha shartining ham xilma-xil ko'rinishlari mavjud.

Tajribalarga tayangan holda quyidagi ko'rinishlarni aytish mumkin:

- a) qisqa yozuv shaklida;
- b) jadval ko'rinishida;
- d) grafik ko'rinishda;
- e) diagramma shaklida.

Qisqacha shartning mukammal tuzilishi masalani tez va oson yechishga yordam beradi.

3-bosqich. Bu etapda masalada berilganlar bilan izlanayotgan miqdor orasidagi aloqadorlik o'rnatiladi, ya'ni berilganlardan qanday qilib foydalanib, izlanadigan miqdorni topish yo'llari aniqlanadi. Muhokamaning turli usullari mavjud. Muhokama analitik, sintetik yoki analitik-sintetik usulda bo'lishi mumkin. Ko'pchilik o'qituvchilar tajribasida muhokamani analitik-sintetik usulda o'tkazish maqsadga muvofiq deb topilgan.



XULOSA

Boshlang'ich ta'lim bosqichida mantiqiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi nafaqat o'quvchilarning individual muvaffaqiyatiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Masala yechish jarayoni nafaqat matematikaning asosiy tarkibiy qismi, balki o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va model tuzish kabi intellektual ko'nikmalarni shakllantiradi. Xususan, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosidagi interfaol metodlar masala yechish samaradorligini oshirishda muhim omil sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining matematik savodxonligi matnli arifmetik masalalarni to'la mustaqil fikrlab yecha olishi bilan belgilanadi. O'quvchilarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi va rivojlanishi yuzasidan pedagog-psixolog olimlar tomonidan ko'rsatilgan nazariy asoslarni amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'quvchida tahlil qilish (analiz), sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish, abstraktlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyat usullarining shakllanishi masalani muhokama qilib, mustaqil bajarishlari uchun asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlari bo'yicha hisobotlar.
3. Vigotskiy L.S. "O'yin va rivojlanish". – 1978.
4. Dewey J. "How We Think". – 1910.
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Ta'lim bo'limi.
6. Ismoilov B. "Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar". – 2021.
7. BMTning Bolalar jamg'armasi (UNICEF) hisobotlari.
8. Piaget J. "The Psychology of Intelligence". – 1950.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.